

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Osiyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya"

kafedrasi o'qituvchisi

(sunny.davranova@gmail.com)

Annotatsiya: Hozirgi zamon ta'lismiz o'zgarishlarga, yangilanishlarga va pedagogik innovatsiyalarga yuz tutgan. Dunyoda va, albatta, O'zbekiston ta'lismizda ham shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'limga katta e'tibor berilmoqda. Ta'larning mazmuni, metodlari va shakllari rivojlanishning yangi bosqichiga o'tmoqda, bunda talaba shaxsining o'zini ifodalash imkoniyatlari, o'rganish jarayonida faolligi va erkinligi markaziy o'rinni egallaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lismiz olish jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ta'limga o'rni, uning ahamiyati, asosiy prinsiplari va amaliyotdagi qo'llanilishi haqida batafsil fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lismi, pedagogik yondashuv, individual xususiyatlar, motivatsiya, faollik, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ta'lismi samaradorligi, differentsiatsiya, ijtimoiy moslashuv, o'qitish metodlari, interaktiv ta'lismi, ta'lismi innovatsiyalari, shaxsiy rivojlanish.

THE IMPORTANCE OF EDUCATION ON THE BASIS OF AN INDIVIDUAL- ORIENTED APPROACH

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Teacher at the Department of "Pedagogy and Psychology"

Asian International University

(sunny.davranova@gmail.com)

Abstract: The modern educational system has undergone changes, updates and pedagogical innovations. In the world and, of course, in the educational system of Uzbekistan, much attention is paid to education based on a person-oriented approach. The content, methods and forms of education are moving to a new stage of development, in which the opportunities for self-expression of the student's personality, activity and freedom in the learning process occupy a central place. The personality-oriented approach presupposes the organization of the educational process, taking into account the individual characteristics of students. This article discusses in detail the role of the personality-oriented approach in education, its importance, basic principles and applications in practice.

Keywords: Personality-oriented education, pedagogical approach, individual characteristics, motivation, activism, independent thinking, critical approach, educational effectiveness, differentiation, social adaptation, teaching methods, interactive education, educational innovation, personal development.

Kirish. Globallashuv sharoitida ta'lismi shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisiga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish,

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Asosiy qism. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minalash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim tizimida o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini, o‘rganish uslublarini, intellektual imkoniyatlarini va emotsiyonal holatini hisobga olishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Uning asosiy maqsadi — o‘quvchini faqat bilim bilan emas, balki uning ichki salohiyatlarini to‘liq ochish, shaxs sifatida rivojlanishini ta’minalashdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchi markazda turadi va o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlariga mos holda ta’lim jarayonini tashkil qiladi. Bu turdagagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagagi ta’limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat’iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- har bir talabani alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo‘lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish;
- ta’lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o‘tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha’ni, g‘ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta’lim jarayonida har bir talaba uchun “muvaqqiyat muhiti”ni yarata olish;
- har bir talabaga ta’lim olisha muvaqqiyatga erisha olishiga yordam berish;

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge><https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyatini quyidagi misollarda ko'rshimiz mumkin:

Nº	Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati	Mazmuni
1.	O'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining o'zi bilan bog'liq barcha xususiyatlarini hisobga oladi. Bu nafaqat uning aqliy salohiyati, balki emotsiyal, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish, ta'limning samaradorligini oshiradi. Har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish tezligi va uslubi mavjud bo'lgani uchun, ta'lim jarayonida individual yondashuv zarur.
2.	O'quvchi motivatsiyasini yuksaltirish	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonini shunday tashkil etadiki, o'quvchilar o'qish jarayonida o'zlarini qiziqitrgan mavzular va faoliyatlar orqali o'z bilimlarini kengaytiradilar. Bunday yondashuvda o'quvchilar uchun maqsadga erishish yo'llari o'zlarini tomonidan aniqlanadi, bu esa ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Motivatsiya talaba shaxsini rivojlantirishda eng muhim omil hisoblanadi.
3.	Ta'lim jarayonida o'quvchining faolligini ta'minlash	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining passiv tinglovchi bo'lib qolmasligi, balki faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'quv jarayonida o'z fikrlarini ifodalashga, savollar berishga va muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga undaydi. O'quvchi faolligi uning o'rganish jarayoniga chuqurroq kirib borishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida ta'limning samarali bo'lishini kafolatlaydi.
4.	Mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarga mustaqil fikrlash imkonini beradi. Ular o'qituvchining ko'rsatmalariga muvofiq faqat ma'lumotni yodlash bilan cheklanmay, balki o'rganilgan ma'lumotlarga tanqidiy nuqtai nazar bilan yondashishni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va yangi g'oyalarga ochiqlikni shakllantiradi.
5.	Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv	Ta'lim nafaqat akademik bilimlarni berishni, balki o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ham ta'minlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarga o'z ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda ishlash, o'z fikrlarini ifodalash, guruhlarda ishlash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ta'lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;

- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy prinsiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Individualizatsiya

Interaktivlik

Ixtiyorilik

Hamkorlik

Qayta aloqa

Individualizatsiya – Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, uning bilim olish jarayonida erkinlikka ega bo‘lishini ta’minlash.

Interaktivlik – O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol va ikki tomonlama muloqot, o‘quvchi faolligi va o‘rganishga qiziqishini oshirish.

Ixtiyorilik – O‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini boshqarish, o‘z qiziqishlari va ehtiyojlari mos mavzularni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Hamkorlik – O‘quvchilarning o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, guruhli ishslash orqali jamoaviy fikrlash va muammolarni bирgalikda hal qilish.

Qayta aloqa – O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi doimiy va samarali qayta aloqa, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va kerakli tuzatishlarni kiritish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashlari zarur. Masalan, muammoli o‘qitish (problematik yondashuv) metodikasi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Birinchi darajali savollarni berish orqali o‘quvchi o‘z bilimiga yangi nuqtai nazardan qarashni o‘rganadi. Boshqa metodlar orasida proyekt asosidagi ta’lim va o‘rganishga asoslangan o‘qitish (learning-based teaching) metodlari ham ahamiyatlidir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga ularning individual ehtiyojlari qarab moslashtirilgan ta’lim uslublarini taklif qilish mumkin. Masalan, ba’zi o‘quvchilar vizual uslublarni afzal ko‘rishadi, boshqalari esa auditoriyaga asoslangan va qo‘llanma materiallaridan foydalanishga moyil. Ta’limni shaxsga moslashtirish talabaning muvaffaqiyatini oshiradi va bilim olish jarayonini samaraliroq qiladi.

Conclusion. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy pedagogik yondashuv bo‘lib, uning ta’lim tizimida o‘rni juda katta. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishi, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijtimoiy va emotsiyal ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual

ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olish, ularning motivatsiyasini oshirish va faolligini ta'minlash orqali ta'lim tizimi yanada samarali va insonparvar bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodlarning yuqori darajada ta'lim olishini va jamiyatda faol, mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

REFERENCES:

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2007. – 97 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
3. Numondjonovna D. G. The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
4. Davranova G. N. Methods of controlling the knowledge of primary school pupils in the subject of the russian language //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 5-20.
5. Numondjonovna D. G. Form, method, tools of using information and communication technologies in teaching russian in primary school pupils //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 47. – C. 495-499.
6. Davranova G. Collaboration between kindergarten and family //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
7. Numondjonovna D. G. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – C. 28-31.
8. Numondjonovna D. G. et al. The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 54-57.
9. Davranova Gulbahor N. Advantages of Using Modern Information Technologies in Teaching Russian Language for Primary School Students //AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 333-338.
10. Davranova G. N. The development of pupils'speech in russian lessons in elementary school //international scientific conference" innovative trends in science, practice and education". – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 147-154.
11. Davranova G. N. Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 73-78.
12. Numondjonovna D. G. et al. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 144-146.
13. Numondjonovna D. G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tilida lug'atlar bilan ishslash jarayonida kreativligini oshirish //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 168-170.
14. Davranova G. N. Theoretical And Practical Aspects Of Applying Information Technology In Teaching The Russian Language //Innovative Development In The Global Science. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 106-111.
15. Davranova G. N. Using Multimedia Technologies In Russian Language Lessons In Elementary Grades: The Way To More Effective Learning //The Role Of Science And Innovation In The Modern World. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 48-53.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

16. Давранова Г. Современная ситуация и возможности использования информационно-коммуникационных технологий в обучении русскому языку учащихся начальных классов //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 219-223.